



# TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2022 - yil 1 – oktabr holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.*

|  |                          |
|--|--------------------------|
| <b>Ro'yxatdan o'tgan korxonalar</b>                    | <b>119 425</b><br>106,9% |
| <b>Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar</b>              | <b>114 837</b><br>106,7% |
| <b>Yangi tashkil etilgan korxonalar (2022 - yilda)</b> | <b>11 817</b><br>90,8%   |

Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni


(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha  
2022 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022 - yil yanvar - sentabr oylarida, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 yil yanvar - sentabr oylarida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




# Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,9** foizga kamaydi





■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan o'zgarishsiz qoldi



Xususiy korxonalar



O'tgan yilga nisbatan **12,9** foizga pasaydi




# Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 – yil 1 – oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,4** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari




**5,3** foizga oshdi



## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**6,9** foizga oshdi



## Oilaviy korxonalar




**7,8** foizga kamaydi




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **8,4** foizga oshdi







## Xususiy korxonalar



**10,5** foizga kamaydi






**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korrxonalar soni**



**Xususiy korrxonalar**









## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni (2022 – yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

10




Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022 - yilning 1 - oktabr holatiga ko'ra 3,9 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,2 mingtaga yoki 4,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3,7 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,2 mingtaga yoki 4,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2022 - yilning yanvar - sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 374 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28 taga yoki 8,1 % ga ko'payganini ko'rish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni (2022 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022 yil 1 - oktabr holatiga ko'ra 9,1 mingtani tashkil etib, ulardan 8,9 mingtasi yoki 97,0 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1,0 mingtaga yoki 13,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022 - yilning yanvar - sentabr oylarida 1 311 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil yanvar - sentabr oylarida, birlikda)




**Toshkent shahrida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2022 - yil 1 – oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

|                           | <i>Jami</i> | <i>shundan:</i>          |                          |
|---------------------------|-------------|--------------------------|--------------------------|
|                           |             | <i>qo'shma korxonona</i> | <i>xorijiy korxonona</i> |
| Rossiya Federatsiyasi     | 1 757       | 775                      | 982                      |
| Qozog'iston Respublikasi  | 876         | 315                      | 561                      |
| Ozarbayjon Respublikasi   | 191         | 57                       | 134                      |
| Ukraina Respublikasi      | 153         | 72                       | 81                       |
| Qirg'iz Respublikasi      | 156         | 49                       | 107                      |
| Tojikiston Respublikasi   | 117         | 47                       | 70                       |
| Turkmaniston Respublikasi | 63          | 20                       | 43                       |
| Belarus Respublikasi      | 121         | 42                       | 79                       |
| Armaniston Respublikasi   | 32          | 15                       | 17                       |
| Moldova Respublikasi      | 21          | 7                        | 14                       |

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2022 - yil 1 – oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

13



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1 – oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalariga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 19,7 %, Qozog'iston Respublikasi 9,8 %, Ozarbayjon Respublikasi 2,1 %, Qirg'iz Respublikasi 1,7 % va Tojikiston Respublikalari 1,3 % ga to'g'ri kelmoqda.

# Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022 - yil 1 – oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

14


|                        | Jami         | shundan:          |                   |
|------------------------|--------------|-------------------|-------------------|
|                        |              | qo'shma korxonona | xorijiy korxonona |
| <b>Toshkent shahri</b> | <b>8 924</b> | <b>3 195</b>      | <b>5 729</b>      |
| tumanlar:              |              |                   |                   |
| <b>Uchtepa</b>         | <b>310</b>   | <b>98</b>         | <b>212</b>        |
| <b>Bektemir</b>        | <b>193</b>   | <b>94</b>         | <b>99</b>         |
| <b>Yunusobod</b>       | <b>1 068</b> | <b>406</b>        | <b>662</b>        |
| <b>Mirzo Ulug'bek</b>  | <b>1 189</b> | <b>421</b>        | <b>768</b>        |
| <b>Mirobod</b>         | <b>1 499</b> | <b>434</b>        | <b>1 065</b>      |
| <b>Shayxontohur</b>    | <b>641</b>   | <b>273</b>        | <b>368</b>        |
| <b>Olmazor</b>         | <b>452</b>   | <b>214</b>        | <b>238</b>        |
| <b>Sirg'ali</b>        | <b>313</b>   | <b>125</b>        | <b>188</b>        |
| <b>Yakkasaroy</b>      | <b>1 429</b> | <b>451</b>        | <b>978</b>        |
| <b>Yashnobod</b>       | <b>752</b>   | <b>303</b>        | <b>449</b>        |
| <b>Yangihayot</b>      | <b>132</b>   | <b>53</b>         | <b>79</b>         |
| <b>Chilonzor</b>       | <b>946</b>   | <b>323</b>        | <b>623</b>        |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Mirobod – 1 499 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 16,8 %), Yakkasaroy – 1 429 ta (16,0 %), Mirzo Ulug'bek – 1 189 ta (13,3 % hamda Yunusobod tumanlarida 1 068 tani (12,0 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining eng kam qismi Yangihayot 132 tani (1,5 %), Bektemir 193 ta (2,2 %), hamda Uchtepa – 310 ta (3,5 %) tashkil etgan.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

15




2022 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar 119 425 tani tashkil etib, tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning jamiga nisbatan ulushi Chilonzor – (12,7 %), Yunusobod – (12,5 %), Mirzo Ulug'bek – (11,4 %), Olmazor – (10,0 %), Shayxontohur – (9,7 %), Uchtepa – (8,7 %), Yakkasaroy – (8,6 %), Mirobod – (8,3 %), Yashnobod – (8,3 %), Sirg'ali – (5,1 %), Bektemir – (2,4 %) hamda Yangihayot tumanlarida (2,3 %) ni tashkil etgan.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022 - yil yanvar - sentabr oylarida, birlikda)

2022-yil yanvar-sentabr oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni 11 817 ta bo'lib, tumanlar kesimida taqsimlanganda ularni jamiga nisbatan ulushi Chilonzor – (12,3 %), Yunusobod – (12,1 %), Mirzo Ulug'bek – (11,7 %), Yashnobod – (9,3 %), Shayxontohur – (9,3 %), Olmazor – (9,2 %), Yakkasaroy – (8,5 %), Mirobod – (8,2 %), Uchtepa – (7,8 %), Sirg'ali – (5,7 %), Yangihayot (3,4 %) hamda Bektemir – (2,5 %) tumanlarida tashkil etgan.





(2022 - yilning yanvar –sentabr oylarida, birlikda)



2022 - yilning yanvar - sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining soni 374 ta bo'lib, ularni tumanlar kesimida taqsimlanganda Shayxontohur – (13,1 %), Olmazor – (13,1 %), Yunusobod – (12,6 %), Uchtepa – (10,7 %), Yashnobod – (9,9 %), Chilonzor – (8,0 %), Yangihayot – (7,2 %), Sirg'ali – (7,2 %), Mirobod – (5,1 %), Bektemir (4,6 %), Yakkasaroy – (4,5 %), hamda Mirzo Ulug'bek tumanlarida (4,0 %) ni tashkil etgan.

## Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022 – yilning yanvar - sentabr oylarida, birlikda)





## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

# Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Toshkent shahar statistika boshqarmasi**

**Statistik registrnlarni yuritish bo'limi**

**tel.: 71 203-88-31**